

RASMLAR KO'RGAZMASI



RASMLAR KO'RGAZMASI

Bugun, 6-aprel kuni viloyat Barkamol avlod bolalar markazi foyesida Termiz shahar maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 22-aprel "Xalqaro yer kuni" munosabati bilan "Tabiat bolalar nigohida" mavzusida maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida rasmlar tanlovining shahar bosqichi o'tkazildi.

Tanlov yakunida 1-o'rin 26 DMTT tarbiyalanuvchisi Jasmina Jovliyeva, 2-o'rin 16 DMTT tarbiyalanuvchisi Intizor G'apparova, 3-o'rin 32 DMTT tarbiyalanuvchisi Shaxrizoda Raxmatullayevalar g'olib deb topildi. Ushbu tarbiyalanuvchilar bo'lim mudirining faxriy yorlig'i va estalik sovg'alari bilan taqdirlanishib, 8-aprelda bo'lib o'tadigan viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritishdi.



